

Millat yo'lida kamarkasta

O'qituvchi qaysi fandan dars bermasini, fikrini o'quvchilarga aniq, ravon bayon eta olishi, tushunarli, ta'sirchan nutqqa ega, yozma savodxonligi yugori bo'lishi lozim.

3-bet

"Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019"

Ruxsora ishonchni oqladi

A'luchi qizning mana shu xislati unga sinfboshilik ishonilganda juda ko'p qo'l keldi. Maktabni tamomlaguncha sinfdoshlariga yetakchilik qildi.

5-bet

Mustaqillik farzandlari

Yosh matematiklarning eng kuchlisi

Boladagi iste'dodning yuzaga chiqishida eng muhim omil nimaligini bilasizmi?



7-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yidan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 25-sentabr, chorshanba № 74 (9243)

Xalq ziyolilari gazetasи

11-bet



Ona tiliga hurmatni o'rgatgan muallima

Yosh avlod qalbida ona tiliga hurmat va muhabbat tuyg'usi maktab davridanoq shakllantirib boriladi. Bu yo'lida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yukanadi.

Pedagog til qoidalari-yu ifodalarni yodlatish, ot va fe'lming qanday so'roqlarga javob bo'lishi, sifatning qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishimi o'rgatish bilan cheklanmay, ona tilining hayotimiz, madaniyatimizda tutgan o'mi, xalqning, millatning birligi ramzi ekanini ham o'g'il-qizlar ongiga singdirib borishi kerak. Buning uchun muallimning fanni chuqr biliishi kifoya qilmaydi, uning qalbida, avvalo, o'z tiliga mehr va kasbiga fidoyilik tuyg'usi muassassam bo'lmog'i lozim.

Poytaxtimizdagi 303-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mumtoza Xonberdiyeva ana shunday fidoyi muallimlardan. U mashg'ulot davomida o'quvchilarغا grammatic qoidalarni shunchaki yodlab olishni emas, ularni anglab, mohiyatin tushunib o'rganishni tavsiya etadi.

Mohir pedagog 6 "A" sinifa o'tgan "Qo'shimchalar tasnifi" mavzusidagi ochiq darsida ham mavzuni hayotiy misollar yordamida tushuntirdi. Shuningdek, farqlanishi biroz mushkul -ning va -ni, -ga va -da qo'shimchalariga ham mavzu

doirasida alohida to'xtalib, ularni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash bo'yicha tushuncha berdi. O'quvchilar e'tibori ko'proq mustaqil fikrashga qaratildi, ijodkorligi, toqirfigi sinovdan o'tkazildi, — deydi Sergeli tuman XTB metodisti Nusrxon Nazarova.

O'qituvchi o'g'il-qizlarga ko'cha-ko'ydagi reklama bannerlarida, ba'zi darslik va badiiy adabiyotlarda qo'shimchalar qo'llanishiga oid xatolardan misollar topib, tahsil etishni uyga vazifa sifatida topshirdi.

Burhon RIZO olgan surat.



Muhibbalar ustoz

11-bet

Ota-onalarni norozi qilmang!

Xalq ta'limi vazirligi ota-onalarga murojaat qildi

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining ma'lum ilishicha, vazirlik yurtimizda keng nishonlanadigan 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umum-xalq bayramini munosib nishonlash va noroziliklarning oldini olish maqsadida ota-onalarga murojaatnomasi yo'llagan.

Murojaatnomada mazkur jarayonda ba'zi sinflardagi ota-onalar qo'mitasi vakillari "o'ta faoliy" ko'rsatayotgani, ya'ni o'qituvchilarini bayram bilan tabriklash maqsadi pul yig'ayotgani, bu esa ayrim ota-onalarining noroziligini keltirish chiqarayotgani ta'kidlangan.

Shuningdek, farzandlariga bilm va tarbiya berayotgan o'qituvchilarini bayramda o'z istak va imkoniyatlaridan kelib chiqib tabriklayotgan ota-onalarga minnatdorlik bildirilib, agar kimning imkoniyati bo'lmasa, boshqa faol ota-onalar tomonidan majburlash yoki ular nomidan umumiy sovg'a qilish bahonasida majburiy pul yig'ish noto'g'riligi aytilgan.

E'lon

Hurmatli pedagoglar, aziz mushtariylar, gазета тармиз sahifalarida muntajam chop etib borilayotgan "O'qituvchi nimani o'ylaydi?" rukni shu kunga qadar o'z muxlislarini topdi. Xabar ringiz bor, ushbu rukn ostida o'qituvchilarning dard-u o'ylari, o'ziga xos fikr-mulohazalari, takliflari berib kelinmoqda. Ushbu mulohaza va fikrlarning rang-barang, qamrovi yanada keng bo'lishi uchun sizlarga murojaat qilmoqdamiz. Endi gазета tamizining internetdagi quyidagi manzillariga ism-familialiya va manzilingizni aniq ko'rsatgan holda o'z fikrlaringizni yuborishingiz mumkin. Eng sara fikrlar gazeta sahifasidan o'rinn oladi.

Elektron pochta: info@marifat.uz, Facebook ijtimoiy tarmog'i: @marifat.uz, Telegram messenger: @marifatziyoy, Telegramdagi guruh: @marifatmushtariylari.

TAHRIRIYAT

SIYOSIY PARTIYALARING VAKOLATLI VAKILLARI RO'YXATGA OLINDI

Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlis bo'lib o'tdi. Majlis kun tartibidan siyosiy partiyalarning vakolatli vakilini ro'yxatga olish masalasi o'rinn oldi.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 34-moddasiga asosan deputatlarga nomzodlar ko'r-satgan siyosiy partiya saylov komissiyasining majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalarini to'g'ri to'ldirilganligini tekshirishda, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun vakolatli vakil tayinlashga haqli.

Markaziy saylov komissiyasining 2019-yil 11-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to'g'risida"gi nizomga muvofiq. Siyosiy partiya yuqori organining rahbari saylov kampaniyasi boshlanganligi rasman e'lon qilingan kundan boshlab besh kunlik muddatda o'z vakolatli vakilini tayinlaydi hamda uni ro'yxatdan o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasiga tegishli hujjatlarni taqdidi etadi.

Ma'lumki, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2019-yil 20-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilindi va shu kundan boshlab saylov kampaniyasi boshlangani e'lon qilindi.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz siyosiy maydonida faoliyat olib borayotgan beshta siyosiy partiya rahbarlari o'z vakolatli vakillarini tayinlab, ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasiga murojaat qildi va tegishli hujjatlarni taqdidi etdi.

Markaziy saylov komissiyasi partiylar rahbarlari tavsivi etgan vakolatli vakillarga tegishli hujjatlarni ko'rib chiqib, ularni ro'yxatga olish hamda guvonomani (mandat) berish haqidagi qaror qabul qildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Baxtiyor Yoqubov, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan Abdukamol Rahmonov, O'zbekiston

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan Nodir Muxtorov, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Vafoyev, O'zbekiston Ekologik partiyasidan Islom Xushvaqtov vakolatli vakillar sifatida ro'yxatga olindi.

Saylov kodeksiga asosan siyosiy partiya o'zingay saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida 40 ming saylovchining imzosini to'plagan taqdirdagina deputatlarga nomzodlar ko'rsatishi mumkinligi va imzo varaqalarining blankalari saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan berilishi belgilangan.

Tadbirda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan siyosiy partiyalarning vakolatli vakillariga ularning ro'yxatga olinganligi haqidagi guvohnomalar hamda saylovchilarning imzolarini to'plashlari uchun belgilangan namunadagi imzo varaqalarini topshirildi.

Nurillo NASRIYEV,
O'ZA muxbiri

"Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetiga xush kelibsiz!

Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetiga 2019/2020-o'quv yilida o'qishga qabul qilinagan talabalar uchun "Orientation week" haftaligi doirasida "Welcome to the University" nomli tadbir o'tkazildi.

Yoshlarni universitet faoliyati, maqsad va vazifalari bilan yaqindan tanishitirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda Samarqand viloyati hokimligi vakillari, universitet professor-o'qituvchilari, talabalar va ularning ota-onalari qatnashdi.

Universitet rektori, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinosari Aziz Abduhakimov belgilangan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, joriy yilda mazkur nufuzli ta'limga dargohiga o'qishga qabul qilinagan yoshlarni tabrikadi. Ularning o'qishlariga muvaffaqiyat tiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil iyun oyida Xitoyning Sindao shahrida o'tkazilgan ShHT sammitida ilgari surgan g'oyasi asosida o'tgan yil tashkil etilgan universitetimiz mamlakatimizda xalqaro talabalar darajasida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'limga muassasasi hisoblanadi, — dedi A. Abduhakimov. — Bugungi kunda universitetimizda turizm sohasi uchun eng zarur va zamonaeviy mutaxassisliklar bo'yicha bakalavraviat va magistratura ta'limga yo'nalişlarida kadrlar tayyorlanmoqda. Qisqa vaqt ichida dunyoning o'ndan ortiq davlatlaridagi yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lg'a qo'yidik. O'zbekiston oliy ta'limga tizimida ilk bor "Double degree" (qo'shma diplom) dashti bo'yicha hamkorlikda talabalarini o'qitish yo'lg'a qo'yildi. Bu bizning talabalarimizga xorijiy davlatlarda nufuzli oliy o'quv yurtlari ta'limga olish, malaka oshirish, tajriba o'rganish imkoniyatini beradi.

Ayni paytda universitetda mahalliy mutaxassislar bilan birga 20 nafarga yaqin xorijlik professor-o'qituvchilar saboq bermoqda. Dars jarayonlari ilg'or zamnaviy ta'limga dasturlari asosida yo'lg'a qo'yilgan.

Statistik prognozlarga ko'ra, "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti talabalarining 92 foizi o'qishni bitirgandan so'ng olti oy davomida ish topishlari mumkin. Ish topishda bitiruvchilarga universitet qoshida tashkil etilgan Career Service (bitiruvchilar va kichik kurs talabalariga ish topishda ko'maklashuvchi xizmat) yordam ko'rsatadi.

Yaqin yillarda mazkur universitet nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoda o'zingin munosib o'mriga ega ilg'or olyi ta'limga muassasasiga aylanadi.

— "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetiga eng yuqori ball bilan o'qishga qabul qilinagan talabalar qatorida ekanligimdan faxrlanaman, — deydi universitet mehmonxona menejmenti yo'naliishi talabasi Gulruxsor Murodullayeva. — Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan mazkur oliy o'quv yurtida o'qish orzumi edi va bugun bu orzum ushalib turibdi. Endi universitetni muvaffaqiyatli bitirib, yurtimiz turizm sohasi rivojiga hissa qo'shadigan kadr bo'lishini o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Bu maqsad yo'liida yaxshi o'qishga, xalqaro tajribani o'rganishga astoydil harakat qilaman.

Tadbir davomida universitet faoliyatiga bag'ishlangan taqdimatlar ham namoyish etildi.

G.HASANOV,
O'ZA muxbiri

Ishsiz yoshlar uchun bepul o'quv kurslari

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi transport kasb-hunar kolleji negizida Qashqadaryo viloyati "Yuksalish" axborot-maslahat resurs markazi tomonidan ishsiz yoshlarga kasb-hunar o'rgatish va ularni ijtimoiy faoliyikka yo'naltirishga qaratilgan bepul o'quv kurslari ochildi.

Qisqa muddatli (2-3 oylik) bu o'quv kurslari "Yoshlarni tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish — yoshlar bandligini ta'minlashda muhim omildir" deb nomlangan loyiha doirasida tashkil qilingan. Bu yerda chiroqchilik yoshlar metallga ishlov berish, mebel jihozlarini ta'mirlash, yasash hamda santexnika ishlari kabi yo'naliishlar bo'yicha kasb-hunar o'rganadi.

Muhim ijtimoiy ahamiyatga molik mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat-notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatalash jamoat fondining moliyaviy ko'magi bilan Qashqadaryo viloyati hokimligining davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshirilmoqda.

— Bepul o'quv kurslari ishsiz yoshlar mehnat bozorida talab anchaligida yuqori bo'lgan metall payvandchi, mebelsoz va santexnik hunarini o'zlashtirish barobarida biznes yuritish ko'nikmalariga ham ega bo'ladi, — deydi "Yuksalish" axborot-maslahat resurs markazi direktori Zulfiya Haydarova. — Shuningdek, ularga o'z ishini boshlash uchun amaliy yordam ko'rsatiladi. Loyiha doirasida birgina Chiroqchi tumanidan 120 nafar (har bir yo'naliish bo'yicha 40 nafardan) ishsiz yoshni o'qitish va barchasiga tegishli sertifikatlar berish nazarda tutilgan. Ishonchimiz komilki, yaqin vaqt ichida o'quv kurslarimiz bitiruvchilarini ishchilar va yosh tadbirkorlar sifatida mehnat bozorida o'z o'rmini egallab, doimiy daromad manbayiga ega bo'ladi.

Bepul o'quv kurslarini tashkil etish

uchun loyiha doirasida Chiroqchi transport kasb-hunar kolleji binosidan xonalari ajratilgan. Ishsiz yoshlar — maqsadli guruhiylar a'zolarini o'qitishga malakali amaliyotchi-mutaxassislar, trenerlar, tajribali tadbirkorlar jalb qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatalash jamoat fondi tomonidan ajratilgan mablag' hisobidan o'quv-ishlab chiqarish xonalarini uskunalar va materiallar bilan ta'minlandi.

Loyihani hayotga tatbiq etish jarayonida mazkur o'quv kurslari negizida eksperimental mahalliy rivojlanish markazi tashkil etilib, unda ishsiz yoshlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni o'rgatish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, biznesni yuritishga doir bilim va ko'nikmalarini yuksaltish bo'yicha doimiy faoliyat olib borish nazarda tutilgan.

Ahamiyati tomoni, mazkur loyiha Qashqadaryodagi NNT tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan dastlabki tashabbusdir. Uni ro'yoba chiqarishda viloyat va tuman hokimliklari, xotin-qizlar qo'mitalari, viloyat bandlik bosh boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, "Hunarmand" uyushmasi hamda yana ko'plab hamkor tashkilotlar ishtirok etmoqda.

O'quv kurslarining tantanali ochilish marosimida tashkilot vakillari ishtirokida loyihami ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida hayotga ta'bq etish borasida davra suhbat o'tkazildi.

O'BAROTOV,
O'ZA muxbiri

Mushtariy e'tirofi

Millat yo'lida kamarbasta

O'qituvchi qaysi fandan dars bermasin, fikrini o'quvchilarga aniq, ravon bayon eta olishi, tushunarli, ta'sirchan nutqqa ega, yozma savodxonligi yuqori bo'lishi lozim. Afsuski, aksariyat o'qituvchilar faoliyatida nutq va yozma savodxonlik bilan bog'liq qator muammolarga duch kelinmoqda.

Pedagogika yo'nalihsidagi oliy ta'limga muassasalarining barcha fakultetlari namunaviy o'quv rejasiga ona tili va adabiyoti fanlarini kiritish, o'qituvchi nutq madaniyati fanini asosiy fan sifatida o'qitish, ajratilgan soatlarni ko'paytirishga ehtiyoj mavjudligi hamda O'zbekistonda tayanch oliy o'quv yurtiga aylangan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakultetidan judo bo'lgani haqida maqolalar bilan "Ma'rifat" gazetasida mutaxassislar birgalikda chiqishlar qildik. Jumladan, gazetaning 2017-yil 6-dekabr sonida "Til va adabiyot ta'limga optimallashtirish o'zini qanchalik oglamoqda?", 2018-yil 20-yanvar sonida "Til va adabiyot ta'limga mulohaza va takliflar" savrighthali maqolalar e'lon qilindi. Muammolar o'rganilib, yechimlari bo'yicha takliflar berildi.

Darhaqiqat, 2016/2017-va 2017/2018-o'quv yillari davomida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o'zbek tili va adabiyoti yo'nalihsining mayjud bo'lmagan ikkala OTM tarkibiy tuzilmasida ham muayyan kemtiklikni yuzaga keltirgan edi. Bu ta'limga dargohlarida tahsil olgan, nevara-chevaralar ham shoni tarixga ega bo'lgan shu tabarruk maskanlarda o'qishini orzu etgan ota-onalarni qattiq tashvishga solgan edi.

"Ma'rifat" gazetasida akademiklar Ahmadali Asqarov, Baxtiyor Nazarov, professorlar Umruoq O'ljaboyev, Qurdosh Qahramonov, Islomjon Yoqubov, Dilmurod Quronov tomonidan oliy ta'limga tizimida adabiyot fanlarini o'qitish yuzasidan bildirilgan tashvishli va umidbaxsh fikr-mulohazalar, istak va tilaklar — "Aks-sado" ruknidagi chiqishlar Prezidentimiz, Vazirlar Mahkamasi,

Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi e'tiboriga tushdi. 2018-2019-o'quv yilda har ikkala "otaxon" universitetda umidli o'g'il-qizlarimiz tahsil ola boshlagani hamimamizni xushnidan etdi.

Jumladan, bugungi kunda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o'zbek tili va adabiyoti yo'nalihsaq qayta ta'sis etilib, yuzdan ortiq talaba tahsil olmoqda. Bu xayrla va egzish yuzlab oilalarga qovonch, shodlik va baxt olib kirib, yoshlarimizdagagi o'ziga ishonch, kelajakka umid, shijoatkorlik tuyg'ularini yanada kuchaytirdi. Ularning ona tili, adabiyot, san'at va badiiy ijodiga rag'batini oshirdi. So'z nafosati va zalvorini his etish, fikr-tuyg'ular mohiyatini anglash, yurt jamoli hamda kamoli haqida to'qinlanib yozish uchun qillariga qalam tutqazdi.

"O'zbek, qozoq tili va adabiyoti" kafedrasida o'nlab yosh olimlar til va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Shuningdek, Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti tadqiqotchilarining pedagogika va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan disseratsiyalari muhokamalari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Bunday egzu ishlarga bosh qo'shgan "Ma'rifat" gazetasi tahririyatiga chuqur minnatdorlik izhor etamiz.

Qurdosh QAHRAMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor
Islomjon YOQUBOV,
filologiya fanlari doktori

Hayotda adolatsizliklar ko'p. Biroq fuqarolikni olib qo'yishdek adolatsizlik har qanday kishining qaddini bukadi. Mening ham boshimga ana shunday tashvish tushgan edi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida maktabda, litseyda, universitetda a'lo baholarga o'qidim. O'qituvchilik kasbini egallab, yoshlarga ta'lim-tarbiya berdim. Ammo menga qariyb 10 yildan buyon shaxsimni tasdiqlab kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti o'rniga fuqaroligi bo'lмаган shaxs hujati berildi. Shundan keyin hayotimda muammolar boshlandi...

O'zbekiston fuqarosi bo'ldim Bu baxtga "Ma'rifat" yordamida erishdim

Bu masala bo'yicha kerakli joylariga yetarlicha murojaat qildim. Afsuski, natija bo'lmadidi. Shundan so'ng "Ma'rifat" gazetasiga murojaat qildim. Gazepta xodimlari men duch kelgan muammoni atroficha o'rgandi va shu yilning mart oyida "Fuqaroligi olib qo'yilgan o'qituvchi adolatsizliklardan jabr chek-yapti" nomli maqola e'lon qilindi. Oddiy o'qituvching, ya'ni mening taqdirmiga befarq qaramagani va ko'ngil so'rاغани uchun tahririyat xodimlaridan minnatdormani.

Gazetaning jonkuyar jamoasi mehnati o'z samarasini uzoq kuttirmadi: 7 yildan beri suket saqlab kelayotgan Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi aprel oyida qo'ng'iroq qildi. Fuqarolik olish uchun bergan oilaviy arizamiz o'rganiyayotgani, tez orada kerakli joyga yuborilishi, buning uchun ma'lumotlarni yangilib berishim kerakligini aytdi. Ish joyimdan va yashash joyimdan oilaviy ahvolim haqidagi ma'lumotnomalarni tayyorlab, Toshkentga jo'natib yubordim va bor e'tiborimni ishimga, talaabalarga ilm o'rgatishga qaratdim.

Vaqt — oqar daryo, deganlaridek kun izidan kunlar shamoldekk yelib o'tardi. Fuqarolik masalasida boshqa yangilik yo'qligi esa sabrimni sinay boshladi. Har haftada bir marta tahririyat xodimlari telefon orqali bog'lanib, yangilik bor-yo'qligini so'rab turishar edi. Ana o'sha paytda, nahotki, davlat organlariga to'rtinchi hokimiyat — OAVning ta'siri yo'q bo'lsa, degan o'y

menga tinchlik bermasdi. Meni qynagan bu savolni jurnalista berganimda, tahririyat ham taqdirimga befarq emasligini, fuqaroligimni tiklab berish uchun harakat bo'layotgani, maqola yuzasidan Ichki ishlar vazirligiga rasmiy xat yuborilganini ma'lum qildi. Va bu say'-harakatlar zoye ketmadi. May oyida Qashqadaryo viloyat IIB xodimi men va yana yuzdan ortiq qashqadaryoliklarga Prezidentimiz tomonidan ishonch bildirilgani, O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilinganimizni xabar qilganida o'zimni qo'yarga joy topa olmadim. Toshkentda malaka oshirish kursida o'qiyotganim uchun hafta oxirlab, Qashqadaryoga qaytishni sabrsizlik bilan kuta boshladim. Va niyoyat, yetti yillik sargardonlikdan so'ng shu yil iyun oyida menga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi pasporti topshirildi.

Hozirgi kunda demokratik islohotlar jadal amalga oshirilayotgani, "Ma'rifat" gazetasini esa o'z nomiga munosib holda o'qituvchilarni qiyabn kelayotgan muammolarni ro'yost matbuotda yoritayotgani insonlarda kelajakka ishonch uyg'otyapti. Pedagoglar biror-bir sun'iy to'siqqa duch kelganda kimga murojaat etishni, ayrim muammolarni OAV orqali ijobiy hal qilish mumkinligini tushunib yetyapti. Bir so'z bilan aytganda, "Ma'rifat" gazetasi misolida o'z ustida izlanayotgan bosma nashrlar hamon kishilarga ziyo ulashishda davom etyapti, deyish mumkin.

Nurbek FARMONOV

Darslik uchun 144 taklif


Poytaxtimizdagi 241-umumta'limga maktabida "Darsliklarni birgalikda takomillashtiraylik" ko'rik-tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Xalq ta'limga vazirining birinchi o'rinnbosari Alisher Umarov hamda Respublika ta'limga markazi mutaxassislari, darsliklar mualliflari, tegishli nashriyotlar vakillari ishtirok etdi.

Darslik — ta'limga tizimining yuzi. O'quvchi darslikda yozilgan har bin so'z, qoida, ma'lumotning beixon ekaniga ishonadi. Shunday ekan, darsliklar har qanday mayda xatolardan xoli bo'lishi zarur. Ammo keyingi vaqtida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda darsliklarning mazmuni va materiallarning savyasiga taalluqli ko'plab e'tirozlar bildirilmoqda.

Mazkur holatlardan kelib chiqish, Xalq ta'limga vazirig'i joriy yilda yangi amaliyotni yo'lga qo'ydi. Unga ko'ra, vazirlikning uzedu.uz rasmisi

tahlil qilindi. Ishchi guruhning xulosasiga ko'ra, tanlov ishtirokchisi, jurnalist Sherali Nishonov 1-, Yangiyer shahridagi 8-maktabning rus tili o'qituvchisi Yulya Musurmonova 2-, Namangan shahridagi 21-IDUMning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Gulnoza Xoldorova 3-o'rning munosib topildi. G'oliblarga vazirlikning diplom va maxsus sovg'alarini topshirildi.

Umumiy o'rta ta'limga maxsus maktablar uchun yaratilgan darsliklarning xato va kamchiliklarni ko'rsatib, o'z taklif va mulohazalarimni bildirdim, — deydi 1-o'rinn sohibi Sherali Nishonov. — Darslik yaratish — murakkab ish. Mukammal darslik yaratish esa juda ko'p mehnat va e'tibor talab qiladi. Tayyor darslikni



tanqid qilish, undan kamchilik axtarish oson, ammo uni yaxshilash, takomillashtirish borasida ko'pehilik jo'yali taklif berolmaydi. Bu tanlovni har yili an'anaviy tarzda davom ettirib, keng omma e'tiborini darsliklarning masalasiga jalb qilish kerak. Hali tanlovda ishtirok etishi kerak bo'lgan ko'p jonkuyar pedagoglar, olimlar, ijod ahli bor. Ularning kuchidan darsliklarni takomillashtirish yo'lida foydalanilsa, yaxshi nataljalarga erishish mumkin.

Zilola MADATOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari maktabda tug'ma iqtidorli muallima ishlayotganidan xabardor bo'ldi.

"Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019"

Ruxsora ishonchni oqladi

Namangan shahridagi 58-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Rahmatoy aya To'rabyeva 34 nafr o'quvchini 1-sinfga qabul qilayotganida ulardan 8 nafari kelajakda muallima bo'lib yetishadi, deya o'yamagan edi. Biroq hamisha kulib yuradigan, tashabbuskor va serg'ayrat, o'qish va jamoat ishlardida doimo faol qatnashadigan Ruxsoraning tug'ma pedagoglik qobiliyatini barvaqt sezadi. A'lochi qizning mana shu xislati unga sinfboshilik ishonilganda juda ko'p qo'l keldi. Maktabni tamomlaguncha sinfdoshlariga yetakchilik qildi.

Ruxsoraning hozirgidek yodida. 8-sinfda o'qib yurgan payti maktab direktori uni chaqirib, 4-sinflardan biriga olib kirdi. Salomlashishga hozirlangan o'quvchilarini o'tirishga imo qilib, Ruxsoraga bir qarab oldi-da, sinfga yuzlanigan ko'yi so'z boshladi:

— Bugun jadvalda belgilangan ikki soat darsni mana shu opangiz o'tadi. Uni taniyisizlarmi?

— Ha!

— Yaxshi. Ustozingizning tobi qochib qoldi. Uyiga ruxsat berdi. Qani, unda hamma kitob-daftarini olsin.

Eshitganlariga hayron bo'lib turgan Ruxsora goh direktorga, goh unga qiziqsinib tikilayotgan qorako'zlarga qarardi.

— Bo'laqol, qizim. Sen eplaysan. Bugun shu balolarning ustozи yo'qligini bildirmay turgin. Axir maktabni bitirsam, o'qituvchi bo'laman, degandeng-a? O'zing qoldiradigan saboqni keyin o'zlashtirib olarsan.

Shu kuni bo'lg'usi muallima ilk darsini o'tdi. Bu voqeagayam 17 yildan oshdi. Maktabni tamomlagach, kirish sinnovlaridan muvaffaqiyatlari o'tib, Namangan davlat universitetining boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyachisi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oldi. Eng qonvonchisi, u kabi 7 nafr sinfdoshiyami pedagoglik kasbini tanlagan edi. Mustaqil hayot yo'li ularni yana birlashtirdi. 2009-yili Ruxsora qo'liga o'qituvchilik diplomini olib, pedagoglik faoliyatini boshladi. Yosh

mutaxassis Norin pedagogika kollejida saboq bera boshladi.

Ruxsoraning 30-maktabga boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida ishga o'tishi kutilmagan voqeа bo'lmadi. Uning qisqa vaqtida o'z kasbinining sir-asrorlarini puxta o'zlashtirgani, bilimi va tajribasini boyitishga intilishini ko'pchilik yaxshi bilardi. Shu sabab ham uch yilda mutaxassis o'qituvchidan 2-tofi muallima darajasiga ko'tarilgandi. Dildida esa birinchi ustozı Rahmatoy ayadek bolajonlarga sevimli, bilimdon va mahoratlari o'qituvchi bo'lishi istagi yonardi. Xullas, taqdır taqozosini bilan 2015-yili Norin tumanidagi 30-umumiyo o'rta ta'lim maktabi pedagoglari safiga qo'shildi. Tez orada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari maktabda tug'ma iqtidorli muallima ishlayotganidan xabardor bo'ldi. Dilbandini Ruxsoraning sinfiga o'qitaman, deganlar ko'payta boshladi.

— Bugunning o'qituvchisi oliy ta'lim muassasasida o'rgangan bilim bilan ishlayveraman, desa xato qiladi, — deydi Ruxsora To'ychiyeva. — O'z ustida ishlash uchun imkoniyat katta. Masalan, internet manbalari yoki ta'limga oid nashrlar orqali zamonaviy pedagogika xos yangiliklar, texnologiyalar va metodlarni o'zlashtirish mumkin. Bular o'z uslubingizni topishingizda, tajriba va mahoratingiz oshishida juda katta yordam beradi. Qolaversa, siz bilan yonma-yon ishlayotgan tajribali hamkas-

bingizni olaylik. Yordam so'rasangiz, ulardan birortasi rad javobini bermaydi. Baxtim, avvalo, ana shunday ustozlar bilan birga ishlaganim va ishlayotganida bo'lsa kerak.

Universitetni bitirib, mehnat faoliyatimni boshlaganimda viloyat xalq ta'limi kodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi Nargiza G'oyibazarova, Namangan shahridagi 5-maktabning boshlang'ich ta'lim muallimasi Marg'uba Mirjalolovadan ko'p maslahat va yo'l-yo'ríg olganman. Hozir ishlayotgan maktabimda esa kuchli pedagogik salohiyatga ega ustozim Zulkumor Ahmedovaning dars berish uslubi, tajribasi asqotyapti. Jamoamizda bunday ilg'or muallimalarning borligi biz yoshlar uchun tayyor mahorat maktabi.

— Tashabbuskor, izlanuvchan, bilimli va salohiyatlari o'qituvchiga har qanday joyda talab bor, — dedi 30-maktab direktori Hamida Ergasheva. — Ruxsora ana shunday fazilatlarga egaligini maktabimizda ishlay boshlagandayoq ko'rsatgan edi. U dars berayotgan sinfda bilim samaradorligi hamisha yuqori. Dars jarayoni yangi pedtexnologiyalar, AKT vositalari yordamida o'tiladi. AKTga jiddiy e'tibor berishi ham bejiz emas. O'quvchi ham eshitib, ham ko'rib o'rganishi evaziga bilimi mustahkamlanadi. E'tirof etish kerak, halil yosh bo'lishiga qaramay, 1-toifaga erishdi. O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'lgani ham samarali mehnati mahsuli.

“Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanloving respublika bosqichiga yo'llanmani qo'liga kiritiguncha Ruxsora bir necha sinovlardan o'tdi. O'zi kabi bilimdon va mahoratlari hamkasblaridan ilgarilab olish uchun juda katta kuch, g'ayrat, va albatta, bilim talab etilishi aniq edi. U barcha shartlarni ishchon va dadillik bilan bajardi.



— Mazkur tanloving Termiz shahrida o'tkazilgan yakuniy bosqichida g'o-liblikka da'voqarlarining aksariyati juda kuchli o'qituvchilar edi, — deya taassurotlari bilan o'rtoqlashdi Ruxsora.

— Toshkent viloyati vakili hamda surxoniyolyik hamkasbim raqobat borasida ustunlikka ega muallimalar edi. Ikkinchishartdan so'ng men peshqadamdan 6 ball ortda qolayotgan edim. Negadir ko'z oldimdan ilk ustozim, hamkasblarim, men ga ikkinchi bosqichda ishchon bildirgan hakamlari qiyofalari o'taverdi. Shunda “sen, albatta, g'olib bo'lishing kerak”, deya o'zimni ishontira boshladim. Va tanloving mammakat bosqichida 1-o'rning munosib ko'rildim. Bilasizmi, buning ortida menga yutuq tilab turgan oilam, kasbdoshlarim va barcha do'stlarimning daldasi ham bor.

U atigi 10 yildan buyon shu kasbda mehnat qilyapti. Biroq kasbga sadoqati kuchli, maktabini, qadrond o'quvchilarini yaxshi ko'radi. Chunki u chin muallima, haqiqiy pedagog, bolajon ustoz ekanini allaqachon isbotlagan. Nufuzli tanlovida esa Ruxsora To'ychiyeva qisqa pedagogik faoliyida topgan e'tirof haqli ravishdagi o'ziga tegishli ekanini yana bir bor isbotladi.

G'anisher AKBAROV,
“Ma'rifat” muxxbiri

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni


Ustoz keldi!

Dunyoda kasblar ko'p, biroq ular orasida o'quvchilikning orni boshqacha. Shu bois bu kasb egalari alohida hurmat, izzat-ikrom bilan “ustoz” deya tilga olinadi.

Yaratganga shukr, orzulam ro'yogba chiqib, o'qituvchi bo'didim. O'quvchilarim qalbiga yo'l topish, ularga nimadir yangi gap aytish, ilm o'rgatish hayotim mazmuniga aylandi. Aslida biz, pedagoglar har bir o'quvchiga bo'lg'usi daho deb qarashimiz kerak. Chunki tajribasiz muallim bo'lishi mumkin, lekin iste'dodsiz bola yo'q, degan gap ayni haqiqat. Har bir bola o'ziga xos bir olam va unda qaysidir fanga, sohaga qiziqish bor. Ana shu qiziqish, iqtidorni vaqtida payqash va yuzaga

chiqarish o'qituvchining bilimi, mahorati va albatta, bolalarga bo'lgan mehriqga bog'liq. O'quvchisiga mehr yo'ymagan, uni yaxshi ko'rмаган o'qituvchi zimmasidagi burchni bajarolmaydi, ustozlik darajasiga ko'tarila olmaydi.

Shogirdlarim katta yutuqlarni qo'liga kiritiganida o'qituvchilik kasbini tanlaganimdan xursand bo'laman. Yurtimizda ta'lim sohasini isloh qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar biziq qanot bag'ishlayapti. Sababi, maktablarimizning mod-



diy-teknik imkoniyatlari yaxshilandi. Muhtasham binolar, zamonaviy fan kabinetlari, laboratoriya xonalari, minglab kitob va elektron adapbiyotga ega kutubxonasi xitiyormizda. Bunday sharoit kasbimizga mehrimizni yanada oshirib, bizni yuqori natijalarga erishish uchun ruhlantiradi.

Yangi pedagogik texnologi-

yalardan unumli foydalansh, o'z ustimda muntazam ishshash, o'quvchilarimni kitobxonlikka jalb etishga urinaman, rus tili va adaptivoti o'qituvchisi sifatida ko'proq jahon adaptivoti namunalardan tarjimalarni mutolaa qilishga undayman. Mashg'ulot o'tishning maqbulroq yo'llarini izlab topishga harakat qilaman.

Har tong ezuq niyatlar bilan maktabga otlanaman. Ilm maskaniga yaqinlashganida o'quvchilarim “Ana, ustoz keldi, ustoz”, deya peshvoz chiqadi. Ularni bag'rimga bosaman. Yo'l-yo'lakay bolalarning savollariiga javob qaytarib, shogirdlarim qurshovida maktab ostosanidan dadil odimilayman.

Ustozlarimga havas qilib, o'qituvchilik kasbini tanladim,

havas bilan boshlagan kasbim ortidan shuncha obro'e-tibor topdim. Aslida, ustoz uchun shogirdlari kamolini ko'rishdan ortiq baxt yo'q. O'zim ham kechagina maktab partasida o'tirgan o'quvchi edim, bugun esa ahil va inoq jamoaning faoliyatlari qilaman. Mashg'ulot o'tishning maqbulroq yo'llarini izlab topishga harakat qilaman.

Har tong ezuq niyatlar bilan maktabga otlanaman. Ilm maskaniga yaqinlashganida o'quvchilarim “Ana, ustoz keldi, ustoz”, deya peshvoz chiqadi. Ularni bag'rimga bosaman. Yo'l-yo'lakay bolalarning savollariiga javob qaytarib, shogirdlarim qurshovida maktab ostosanidan dadil odimilayman.

Ustozlarimga havas qilib, o'qituvchilik kasbini tanladim,

Xadicha BOLTAYEVA,
Nurota shahridagi
55-maktab o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Tuyuq tahlilida metodlarni qo'llash

Mumtoz adabiyotimizga doir mavzularni o'tish biroz murakkab jarayon. Chunki o'sha davr tili, she'riyat uslubi, qolaversa, vazniga doir ma'lumotlarni bugungi kun bolalariga yetkazish, singdirish qiyinroq. Garchi pedagogik faoliyatda o'quvchilarning mustaqil bilim olishi, o'z ustida ishlashi orqali yaxshi natijaga erishishni ko'zda tutsak-da, mumtoz adabiyot mavzularida o'qituvchining ham ta'siri kattaligiga e'tibor berish lozim. Bu borada pedagog qanday ishlarni amalga oshirishi mumkin?

Avalo, muallimda mumtoz adabiyotga doir ma'lumotlarning boy zaxirasini mavjud bo'lishi kerak. Birgina tuyuq mavzusini o'tish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

— tuyuqning to'rt misradan iborat bo'lishi;

— tuyuqdagi bosh nuqta — jinsdosh so'zlar mavjudligi;

— jinsdosh so'zlar orqali so'z o'yinining hosil bo'lishi;

— so'z o'yinini mohirona qo'llash orqali yagona ma'noni yuzaga keltirish san'ati.

O'qituvchi besh-o'n daqiqa she'riy san'atlarga murojaat qiladi. Qanday she'riy san'atlar mavjudligi, bular ichida tajnis san'atining o'ziga xosligiga to'xtaladi.

Xuddi shu o'rinda muallim ona tilining leksikologiya bo'limiga murojaat qilishi mumkin. Bu o'qituvchi uchun fanlararo bog'liqlikni ta'minlash imkonini beradi. So'z ma'nolari mavzusida u bolalarga sinonim, antonim, paronim va omonimlar nimaligi haqida savol beradi. Pedagogik texnologiya bo'yicha bu "Aqliy hujum" texnologiyasidir. Savol o'rta ga tashlangandan keyin o'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlarni eslaydi, ona tili bo'yicha bilimlarini mustahkamlab oladi. Shu o'rinda yana bir pedagogik texnologiya qo'llanib, "Kim topqir?", "Kim chaqqon?" nomi ostida jadval tuziladi. O'qituvchi bunga oldindan tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi kerak. Jadvalda so'zlar, ularning sinonimi, antonimi, omonimi, paronimiga doir katklar to'ldiriladi.

O'qituvchi o'quvchida qanday shaklda bo'lmasin, o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini shakllantirishi lozim.

Tajriba

Bosqichli o'qitish usuli

Yangi o'quv rejalar, dasturlari, yangi avlod darsliklari hamda ta'lim standartlarining o'zlashtirilishi pedagogdan zamonaviy texnologiyalar asosida ish yuritishni talab etadi. "Tayanch kundalik reja asosida dars o'tish orqali o'quvchilar faolligini oshirishning ba'zi usullari" mazkur vazifani hal etishga xizmat qiladi. Ushbu uslubiy tavsiyalar shaxsiy pedagogik tajribalar asosida yaratilib, tajribasindan o'tkazildi. Bu o'quvchilar bilim darajasini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini mustahkamlash, ularning o'z ustida ishlashiga yordam beradi.

Uslubiy tavsiyada ko'rsatilgan bosqichli o'qitish usuli amaliyotga birinchi marta tatbiq etilmoqda. Ushbu usul o'quvchilarning 5-sinfdan boshlab bilimi pasayishining oldini oladi, fanlarga qiziqishini oshiradi. Avalo, o'qituvchi darsga puxta tayyorlanish uchun bir soatlik dars rejasini tuzishga e'tibor berishi kerak. Yangi mavzu, dars va uya vazifani bir soatga mo'ljallab, reja daftargiga yozib, ilmiy mudirga tasdiqlatib borishi lozim. Yangi mavzuni mustahkamlash qismi esa boshqa daftarga yoziladi.

Masalan, o'quvchilarga "Amir Temur davlatining tashkil topishi" mavzusida ma'lumot berish topshiriladi. Ma'lumotlar aytilgach, mavzu bilan bog'liq savollarni beriladi. O'qituvchi xohlasa, savollarning tagiga qisqacha javob yozib qo'yishi mumkin. Muallim

bu savollarni darsda berib borsa, mavzuga doir ma'lumotlar o'quvchilar esidan chiqmaydi. Bunday ish rejasidan foydalanish o'quvchilarning bilimini oshirisha yordam beradi. O'qituvchi yangi mavzuning mustahkamlash qismini keyingi yili qaytadan yozmasi ham bo'ladi. Vaqt tejalidi. Bunda savol-javoblar, qo'shimcha ma'lumotlar yozilgani uchun tayanch kundalik reja hisoblanadi. Ushbu usul tayanch kundalik reja asosida dars o'tishning **birinchi bosqichi** sanaladi. O'quvchining o'ziga ishonchi orbit, fikrlash darajasi kengaygan dan keyin o'qituvchi **ikkinci bosqichga** o'tishi kerak. Bu qisqichda pedagog bolalariga faqat bitta mavzu bo'yicha uchtadan savol berishni o'rgatadi. Dars vaqtida qaysi mavzudan savol berilayotgani aytilib o'tilishi

shart. Savollarning birortasiga javob berilmasa, savol beruvchi o'quvchining o'zi javob berishi kerak. Bolalar bu savollarga darsda yozdirilgan konsept asosida, darsning o'zida yoki uydya konsept asosida tayyorlanib, uydya javob tuzib kelishi ham mumkin. Bu usuldan keyin o'qituvchi doskaga savol o'rniq tarixiy joy, shaxs va sanalarni yozib, shular haqidagi ma'lumot berilishini talab qilishi mumkin.

Ikkinci bosqichdan boshlab o'quvchilar 2 guruhga bo'linadi. Birinchi guruh savol bersa, ikkinchi guruh javob qaytaradi. So'ng ikkinchi guruh savol beradi. O'quvchilar faolligi yanada oshib borishi bilan sind o'quvchilarini uch guruhga bo'lish ham mumkin. Birinchi, ikkinchi guruh savol-javob bilan shug'ullansa, uchinchi guruh darslikdagi mav-

Masalan, sinonim mavzusiga oid jadval:

So'z	Sinonimi
Lab	Dudoq
Osmon	Ko'k
Quyosh	Xurshid

Omonim mavzusiga oid jadval:

So'z	Omonimi
Olma (ot)	Olma (fe'l)
Yoz (ot)	Yoz (fe'l)
Tor (ot)	Tor (sifat)

Shundan keyin tuyuqlar tahliliga o'tiladi. Ulardagi omonim so'zlarning qanday hosil qilinganiga e'tibor beriladi, tahhil qilinadi.

Sinfdag'i o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, ular o'tasida musobaqa tashkil qilish mumkin. Tahlil jarayonida o'quvchining vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bayarganiga emas, balki mehnatiga e'tibor beriladi. O'qituvchi o'quvchida qanday shaklda bo'lmasin, o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini shakllantirishi lozim. Har qanday qolip jumlalar, muayyan shakldagi fikrlardan chekinishga, masalani kengroq tasavvur qilishga undash, tafakkur yuritishga erishish kerak. Shundagina o'quvchi abadiyot darslari mavzularini birmuncha o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga savollar berib,

uni fikrlashga undashi, yo'naltirishi lozim. Masalan:

— Nega yozuvchi bu qahramonga shunday nom qo'ygan, nima deb o'layasiz?

— Nega qahramon bu holatda shunday dedi?

— Asardagi bu obraz nega shunday yo'l tutdi?

— Buning o'rniiga nima deyish mumkin edi?

— Shu holat sizda yuz bersa, nima qilgan bo'lardingiz?

Bular o'quvchilarning og'zaki va yozqina nutqini rivojlantrirish, kengroq fikrlashga undovchi umumiyyat savollar. O'quvchi bularmi alohida kartochkalarga yozib tarqatishi mumkin. Bu umumiyyat savollarni muayyan mavzuga moslashtirish mumkin.

O'quvchi bilan ishlashda darsdan tashqari o'qishga, mustaqil mutolaaga e'tibor berish kerak. Dars esa faqat muhokama, o'z fikrini bayon qilish imkonini berishi lozim. Buning uchun o'quvchi hamma dars mavzularini oldindan yozib, jadval tarzida bolalar qo'liga bersa, yaxshi bo'ladi. O'quvchi Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari nechanchi darsda bo'lishini aniq biladi, qissani oldindan o'qib kelish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umida MUHAMMADIYEVA,
Shahrisabz shahridagi
19-maktab o'qituvchisi

kerak. Bu usul **beshinch bosqich** hisoblanadi. Sanoqli ma'lumot beruvchi tarqatmalardan savol yoki so'zlar o'rniiga raqamlar yoziladi. Bu holatda raqamlar soni nechta bo'lса, o'quvchi ko'rsatilgan mavzu yuzasidan shuncha ma'lumot berishi kerak.

Sanoqli ma'lumot beruvchi 2 yoki 3 tadan ortiq tarqatmadan foydalananmaslik kerak. Qolgan vaqtida esa takrorlashning boshqa usullaridan foydalanish lozim. Tayanch kundalik reja asosida takrorlashning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida o'quvchi har doim birinchi bosqichdagi usulni qo'llashi shart. Tayanch kundalik reja asosida dars o'tishning ikkinchi yilida to'rinchi bosqichga o'tish boshlandadi.

To'rinchi bosqichda yordamchi tarqatmalardan foydalilanadi. Tarqatma savol-javob qilishga mo'ljallangan, lekin unga savollarni yozilmaydi. Faqat mavzuga doir ayrim sanalar, tarixiy shaxslar nomlari, muhim tarixiy voqealar, shular sodir bo'lgan joy nomlari yoziladi. Raqamlari topishmoq o'yinda ham tarqatmalar tayyorlanadi. Mustaqil tarqatmalardan foydalanan tayanch kundalik reja asosida dars o'tishning **oltinchi bosqichi** hisoblanadi. Bu usul darslarda berilgan mavzularning turlari, qismlar, sohalarga bo'linishi, muhim voqealar, shahar, viloyat va boshqalarning soni bo'yicha ma'lumot berishi talab qiladi. Raqamlari topishmoq o'yinda ham tarqatmalar tayyorlanadi. Mustaqil tarqatmalardan foydalanan tayanch kundalik reja asosida dars o'tishning **yettinchi bosqichi** hisoblanadi. Bosqichli o'qitish usullari o'quvchilarning qabul qilish darajasiga qarab ba'zi siflarda 2, ba'zi sinflarda esa 3 yil davomida amalga oshiriladi.

Abduraim ORTIQOV,
Chinoz tumanidagi
25-maktab o'qituvchisi


Ota-onas, ustoz va o'quvchi bir maqsadni ko'zlab, hamfikr harakat qilsagina, ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Mustaqillik farzandlari

Yosh matematiklarning eng kuchlisi

Agar chindan ham kuchli bilim, yuksak aql-u tafakkurga ega bo'sang, seni dunyoning har bir chekkasida tan olishadi. Bejiz kuch — bilim va tafakkurda, deyilmaydi.

Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatinning 7-sinf o'quvchisi Anvarjon Rahmatov Janubiy Afrikaning Durban shahrida o'tkazilgan Xalqaro matematika musobaqasida (IMC 2019) oltin medalni qo'lg'a kiritdi.



Joriy yilning 1—6-avgust kunlari bo'lib o'tgan mazkur an'anaviy musobaqada 41 ta davlatdan 500 nafardan ortiq iqtidorli o'quvchi ishtirok etdi.

— Bunday nufuzli musobaqada ilk bor qatnashayotganim uchun avval biroz hayajonlandim, — deydi Anvarjon o'z taassurotlarini so'zlab. — Chunki oddiy musobaqalardan farqli o'laror, bu yerda dunyoning eng bilimdon o'quvchilarini jamlangan edi. Muhtasham auditoriya, mutlaqo notanish odamlar va notanish muhitda hayajonim cheksiz edi. Ammo musobaqaga start berilib, 15 ta masalani yechishga kirishgach, hammasini unutdim. Men endi butun borlig'im bilan matematika olamiga sho'ng'ib ketgandim. Har bir masala yangi bir sarguzasht go'yo. Unda turli kechimmalarga duchi kelasan, butun tafakkuringni ishga solib, yangi-yangi yo'llarni kashf etasan. 14 ta masalani shu taxlit berilib ishladim. Biroq oxirgisiga kelganda, vaqt yetmay qoldi. Garchand o'zimga tamomila ishongan bo'lsam-da, ulgurolmay qolganim biroz ta'bimni xira qildi. Natijalar e'lon qilinguniga qadar xavotir ichida o'tirdim. G'oliblar qatorida nomimni o'qiganlarda esa quvonchdan sakrab yuborayozdim. Ko'z oldimidan onajonim, otam va ustozlarim o'tdi. Axirular menga katta ishchon beldirishgan edi-da. Ana shu ishchoni oqlay olganimdan niyoyatda xursandman. Erishgan bu yutug'imga katta hissa qo'shgan sinf rahbarim va matematika fani o'qituvchim Ro'zimurod Ro'zimurodovga alohida minnatdorlik bildiram.

Muvaffaqiyat uchburchagi

— Men rahbarlik qilayotgan 7-sinfda 30 nafar o'quvchi tahsil oladi, — deydi tajribali ustoz Ro'zimurod Ro'zimuro-

dov. — Ularning barchasi qayta-qayta sinovlarda saralab olingen iqtidorli, matematikaga qobiliyat bor bolalar. Ammo oralarida faqat 4-5 nafarigina xalqaro olimpiadalar talabiga javob beradi. Besh barmoq baravar bo'lmaganidek, o'quvchilardagi imkoniyat ham turlicha bo'ladi. Biroq shundaylar ham borki, o'zidagi iste'dodni to'laqonli namoyon etolmaydi.

Boladagi iste'dodning yuzaga chiqishda eng muhim omil nimaligini bilasizmi? Bu — uning o'ziga bo'lgan ishonchi. Ustozi, ota-onasi unga xayri-xoh bo'lsa, uni hamisha qo'llab-quvvatlab, ruhlantrib tursa, bu ishonch mustahkam bo'ladi. Ota-onasi e'tiboridan chetda qolgan farzand hech qachon mas'uliyat his etmaydi. Maqsadga erishishga astoydil chog'lanmaydi. Chunki uning bu harakatini rag'batlantrib turadigan, intilishlariga qiziqish bildiradigan suyanch yo'q. Bu vaziyatda birgina o'qituvchining chirishlari yelga sovurilgandek samarasiz ketadi.

Ba'zi ota-onalar butun mas'uliyatni ustozga tashlab qo'yishadi. Ayrimlari hatto bir oyda bir marta o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishida ishtirok etishdan ham vaqtlarini qizg'anishadi. Ular uchun eng muhim — farzandlarini moddiy jihatdan to'kis ta'minlab turish, shuni burch deb sanashadi. Biroq endigina uchirma bo'layotgan polapon bitta qanot bilan ucholmaganidek, o'quvchi

ham ustoz va ota-onasining ma'naviy ko'magiga muhtoj bo'ladi. Bunda moddiyat hech qanday ahamiyatga emas.

Ota-on, ustoz va o'quvchi bir maqsadni ko'zlab, hamfikr, hamqadamlikda harakat qilsagina, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Buni men "muvaffaqiyat uchburchagi" deb atayman. Bugun nufuzli musobaqalarda yutuqlarga erishayotgan o'quvchilarning aksariyati ana shu uchburchach tegrasidagi bolalar, shu jumladan, Anvarjon ham.

Odatda, biz olimpiadaga tayyorgarlik jarayonini 5-sinfandoq boshlaymiz. Dastlab sinfning o'zida qayta-qayta sinovlar o'tkazilib, ulardan muvaffaqiyatlari o'tgan 4 yoki 5 nafar o'quvchi tanlab olinadi. So'ngra sinflar kesimida 15 nafardan iborat tayyorlov guruhi tuziladi. Haftada ikki marta

iborat tayyorlov guruhi tuziladi. Haftada ikki marta ular bilan jiddiy mashg'ulotlar olib boriladi. Bu mashg'ulotlar nafaqat darsliklar, balki xalqaro olimpiada materiallari asosida tashkil etiladi. Geometriya, ehtimollik nazariysi, sonlar nazariysi, kombinatorika bo'limlariga oid murakkab masalalarni yechish usullari o'rganiladi. O'quvchilarimiz o'z imkoniyatlарини дастлаб билимлар bellashuvida sirovdan o'tkazishadi, tajriba oshirishadi, ko'nikma hosil qilishadi. Bu ular uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Aytish joizki, Anvarjonning ham bugungi yutug'ida aynan bilimlar bellashuvini muhim bosqich bo'lidi. U mazkur tanloving tuman bosqichida ketma-ket uch marta ishtirok etib, uchalasida ham 100 foizlik natijani qayd etgan edi. Ishonchim komilki, boshlanayotgan yangi o'quv yilida ham o'ziga xos qobiliyat sohibi bo'lgan va ilm maskanimizning eng umidli o'quvchilaridan biri sanalgan Anvarjon maktabi, ustozlari, ota-onasi va Vataniga yana oltin medallarni tuhfa etadi.

"Bolani o'z erkiga qo'yib bering!"

Anvarjonning onasi Nazira Umavorovaning bola tarbiyasidagi prinsipi shunday. Kasbi o'qituvchilik bo'lgani uchunni, bu jarayonga niyoyatda ehtiyyotkorlik va talabchanlik bilan yondashadi.

— Farzandlarimiz dunyoga kelishi bilanoq, ularning kelajagi haqida orzu qilishni boshlaymiz, — deydi u. — "O'g'lim otasidek bankir bo'ladi, qizimni shifokor qilaman..." Holbuki, bolanang kim bo'lishini biz emas, ularning o'zlarini belgilashi lozim. Chunki har bir insonda o'ziga in'om etilgan layoqat, qobiliyat bo'ladi. Uning qiziqish, istaklari ana shular asosida yuzaga chiqadi. Agar biz bu

Odatda, biz olimpiadaga tayyorgarlik jarayonini 5-sinfandoq boshlaymiz. Dastlab sinfning o'zida qayta-qayta sinovlar o'tkazilib, ulardan muvaffaqiyatlari o'tgan 4 yoki 5 nafar o'quvchi tanlab olinadi. So'ngra sinflar kesimida 15 nafardan iborat tayyorlov guruhi tuziladi. Haftada ikki marta

istaklari bilan hisoblashmay, o'z xohishlarimizni ustun qo'ysak, farzandimizning kelajagini yo'qqa chiqaramiz. Boringki, siz san'at yo'lini tanlamoqchi bo'lgan farzandingizni huquqshunos qilishga yoki shifokorlikka moyil qizingizdan o'qituvchi "yasash"ga erishdingiz. U ota-onasining orzu-havasini ro'yobga chiqargan farzand sifatida ishlab ketishi mumkin. Lekin biror-bir yutuqqa erishishi mushkul. Nari borsa, o'tamiyona mutaxassis bo'ladi.

Men ota-onalarning hamisha o'z farzandlari baxt-sodaotini ko'zlashlari, har bir xatti-harakatida shu maqsad mujassam ekanligini tushunaman, buni qadrlayman. Ammo bu yo'lda bolalarga go'dakligidanoq ortiqcha bosim o'tkazish, haddan ortiq yuklamalar bilan uni qiyashlarini sira tushunmayman. Ayni paytda aksariyat ota-onalar farzandlari ga bog'cha yoshidanoq, ba'zilari hatto 3-4 yoshidanoq pulli repetitor yollashadi. Men ana shunday ota-onalarga oddiy pedagog sifatida o'z tajribamga tayangan holda shunday maslahat berган bo'lardim: bolaga bolalik dunyosida yashashga imkon bering. Mayli, u o'ynasin, dam olsin, sayr qilsin — o'zi istagan mashg'ulot bilan erkin shug'ullansin! Har narsaning o'z vaqt, me'yori bo'ladi. Donolardan biri aytganidek, "Bola istagan suyuqlik bilan to'ldiriladigan idish emas". Uni o'z erkiga qo'yib bering. Vaqt keilib u o'zidagi qiziqishi, qobiliyatni o'yinlari, munosabatlari, xatti-harakatlari orqali namoyon eta boshlaydi. Ana shunda siz uni qiziqishlari sari biror sohaga yo'naltirishni boshlang. Buni ham faqat birdan ortiqcha yuklama yulab, bosim o'tkazib emas, balki asta-sekinlik bilan amalga oshiring.

Faoliyatim davomida o'quvchilarim hamda ikki farzandim ta'limtarbiyasiga nisbatan ana shunday yo'1 tutaman. Farzandlarimni repetitorlik kurslariga bermaganman. 9-10 yoshlariga qadar ularning o'ynashi, dam olishi uchun vaqt ajratganman. Ba'zan turmush o'rtog'im ikkимиз bu o'yinlari ular bilan birgalikda o'ynaymiz. Uyga vazifalarini hozir ham birgalikda bajaramiz, qiziqishlari, orzu-istiklari haqida erinmay suhbatlashamiz. Qorako'lida 1-IDUMda o'qish fikri ham uning o'zidan chiqqan. Bir kuni u "Oyi, men ham tog'amning o'g'li o'qiyotgan maktab-internatda o'qimoqchiman", deb qoldi. Biz uning bu istagini qo'llab-quvvatladik. Endilikda Anvarjon o'z yo'lini belgilab olgan. U kelajakda iqtisodchi bo'lmochi. Nega aynan bu sohani tanlagani haqida so'ranganimda, u "Iqtisodiyoti rivojlancha davlat — kuchli davlat bo'ladi. Men O'zbekistonning ana shunday kuchli davlatga aylanishiga hissa qo'shishni istayman", deb javob berdi. Ko'ksim g'ururga to'ldi, 15 yoshidayoq Vatan koriga yarashni maqsad qilgan farzandi tarbiyalayotganidam, uning onasi ekanligimdan faxrlandim.

Iroda ORIPOVA,
"Ma'rifat" muxbirli



O'ZBEKISTON TA'LIM, FAN VA MADANIYAT XODIMLARI KASABA UYUSHMASI RESPUBLIKA KENGASHI

Muhtaram o'qituvchi va murabbiylar, aziz ustozlar!

Barchangizni 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan samimiyl muborakbod etamiz.

Sizning kamtarona, ayni damda zahmatli kasbingiz zamirida mehr-muhabbat, insoniy bag'rikenglik, ilm-ma'rifat, shijoat va fidokorlik sifatlari mujassamdir.

Yosh avlodni kamolga yetkazish yo'lidagi sharafli xizmatlaringizda muvaffaqiyat, barchangizga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt tilaymiz!



**AYYOMINGIZ MUBORAK BO'LSIN,
AZIZ USTOZ VA MURABBIYLAR!**



NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**Barcha ta'lif dargohlari o'qituvchilarini, yoshlarga
sport sirlarini puxta o'rgatib, ularni xalqaro
musobaqalarda g'oliblik shohsupasiga olib
chiqayotgan murabbiylarni**

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

**umumxalq bayrami bilan muborakbod etamiz!
Mamlakatimiz ta'lif tizimini yanada yuksaltirish
yo'lidagi mashaqqatli mehnat faoliyatingizda
omad va zafarlar tilaymiz!**



"Barkamol avlod" markazlarida

Robotchilar maskani

"Barkamol avlod" markazlarda o'g'il-qizlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqda.

— Markazimizda 52 ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, 1 559 nafar o'g'il-qiz qamrab olingen, — deydi Qo'ng'irot tumanidagi "Barkamol avlod" markazi rahbari Munira Matmuratova. — Yildan yilga to'garak a'zolari soni ortib bormoqda. Masalan, 2015-yili 480 nafar a'zomiz bor edi. Hozir o'quvchilarning qiziqishi, ota-onalar talab va takliflariga ko'ra yangi to'garaklar tashkil etilmoxda. Shu bois markazimiz binosini kengaytirish ehtiyoji bor. Ayni damda sharoit bo'limganligi sababli ayrim to'garaklarni maktablarda tashkil etganimiz. Boshqa muammolarni o'zimiz joyida hal etishga harakat qilyapmiz. Zamon talabiga mos tadbirdorlik faoliyatini yo'liga qo'yidik. Turli bayram va tadbirdorda qo'g'irchoq teatri tomoshalari va konsert dasturlarini tashkillashtiramiz, zalimizni, milliy va teatr liboslarini ijara berib turamiz. Ulardan tushgan daromadga markazimiz uchun zarur inventar, texnikalar, kerakli jihozlar olinmoqda.

Darhaqiqat, izlanishlar izsiz ketmaydi. Markazda ko'plab musobaqa va tanlovarda yuqori natijalarga erishayotgan iqtidorli yoshlar juda ko'p. Shulardan biri Berdiyar Barliqboyev. U 2014-yili "Barkamol avlod" markazining "Mo'yqalam" to'garagiga a'zo bo'lib, o'z iqtidorini rivojlantirib, imkoniyati ni turli tanlovlarda sinovdan o'tkazdi. Bir yigitga



yetmish hunar oz, deganlaridek u faqat bir hunarni o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, bir necha to'garaklarda faol qatnashadi. Ayniqsa, texnikaga qiziqishi bois 2018-yili markazdagi robototexnika to'garagiga a'zo bo'ldi. Qisqa fursat ichida ustozi O'rinboy Yesemuratovdan texnika sirlarini o'rganib, e'tiborga tushdi. Turli tanlov va festivallarda qatnashib, yuqori natijalarga erishdi. Jumladan, 2018-yili "Yilning eng yaxshi ixtirochisi" tanloving Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida elektron o'yinchoqlar yo'naliishiда uchinchi o'rinni yo'liga kiritdi.

2018-yili iqtidorli yoshlarni izlab topish va rag'bataltirish maqsadida o'tkazilgan "Youth techno art — 2018" texnik ijodkorlik festivalining Qoraqalpog'iston bosqichida birinchi, O'zbekiston Respublikasi bosqichida ikkinchi o'ringa munosib topildi. 2019-yili yanvar oyida bo'lib o'tgan "Kamalak" yulduzlarini tanlovida (Qoraqalpog'iston bosqichida) robototexnika yo'naliishiда birinchi o'rinni kiritdi. 2019-yili yanvar oyida bo'lib o'tgan "Kamalak" yulduzlarini tanlovida (Qoraqalpog'iston bosqichida) robototexnika yo'naliishiда birinchi o'rinni kiritdi.

Buyuk siymolar

Muhaddislar ustozasi

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni yaqinlashmoqda. Odatda biz bu bayramda ustoz va murabbiylarimizga sovg'a-salomlar ulashamiz, guldastalar taqdim etamiz, iliq tabrik so'zlarini aytamiz. Lekin bu kunda qilishimiz lozim bo'lgan yana bir vazifamiz bor. Shu haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yo'q, albatta. Buning uchun tanamizda jasorat, qalbimizda ishtiyoq, ongimizda ilm-u ma'rifatga muhabbat jo'sh urmog'i zarur. Ana shundagina qo'llimizni bexosdan kitob javonimizga cho'zamiz, ilm-ma'rifat maskani bo'lgan kutubxonalar sari odimlaymiz. Dunyo xalqlarining ma'rifiy yuksalishiga tamal toshini qo'yan imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Nasafiy, imom Zamaxshariy, imom Doramiy, imom Abu Lays Samarcandiy, Burhoniddin Marg'ioniy kabi faxr-iftixorimiz bo'lgan bobolarimizning umrboqiy asarlarini mutolaa qilib, ma'naviy kuch-quvvatga to'lamiz. Ular ruhiga xolisona duolar o'qiyimiz. Aslida, faqat bayram kuni emas, balki har kuni, har soatda shunday savobli ishga qo'l urishimiz bizning azaliy qadriyatlarimiz davomiyligi emasmi?!

Imom al-Buxoriy ana shunday e'zozga loyiq bo'lgan ustozlarimizning eng buyugidir. Abu Abdullah Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hijriy 194-yili shavvol oyining tugashiga o'n kecha qolganida, juma namozidan keyin Buxoro shahridagi ilm-ma'rifati oilda dunyoga keldi.

U kishining otasi Ismoil ibn Ibrohim o'ziga to'q, ilm-ma'rifatlari kishi edi. Uni Buxoroda hamma Abul Hasan nomi bilan chaqirardi. Yillar o'tib, imom al-Buxoriy otasi haqida "Tarixul Kabiyr" kitobida bunday satrlarini yozib qoldirdi: "U Hammud ibn Zaydni ko'rgan va Ibn Muborak bilan ikki qo'llab ko'rishgan kishi edi".

Shu satrlarning o'ziyoq imom al-Buxoriyning o'z zamonasidagi fozil kishi xonadoniga voris ekanligini isbotlaydi.

Imom al-Buxoriy otasidan juda yoshlik chog'laridayoq yetim qoldi. U mehribon onasi va akasi Ahmadning qaramog'ida voyaga yetdi. Undagi ilmga bo'lgan ishtiyoq go'daklik chog'laridayoq shakllandi. Bu haqida Abu Ja'far Muhammad ibn Abu Hotimi Varroq quyidigilami yozadi: "Men Abu Abdulloh ibn Ismoil Buxoriyga: "Hadis talab qilishni boshlagan qanday bo'lgan?" deganimda, u bunday javob berdi: "Boshlang'ich ta'lim olayotganimdayoq hadis yodlashga ilhomlantirildim".


Zukko va ilmga chanqoq bu go'dakning bir kun kelib, butun musulmon olamidagi xalqlarga ustozlik qilishi o'sha paytdayoq ko'philish murabbiylarga ayon edi. O'z zamonasining ilg'or fikrli kishilar, olim-u fuzaolari sanalgan bu mudarrislardan ushbu haqiqatni oshkora tan olishardi. Kunlarnig birida u otasining darsxonasida ustoz Abu Hafs Ahmad ibn Hafsdan dars olayotgandi. Ular Sufyonning "Jome" kitobini o'qishardi. Ustozni bir harfda xato qildi. Yosh Muhammad andishani bir chetga yig'ishtirib qo'yidda, xatoni tuzatdi. Ustoz ikkinchi marotaba xato qildi, bolakay yana tuzatdi. Ustoz uchinchi marotaba xato qildi, yana dakki eshitdi. Shunda murabbiy bir muddat sukti saqlab qoldi-da, so'ng so'radi:

— Bu bola kim?

— Ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Bar dizba, — deyishdi tinglovchilar.

Shunda ustoz Abu Hafs shogirdlariga qarata dedi:

"Uning tuzatishlari to'g'ri ekan! Es lab qolinqilar! Albatta, u bir kuni Odam bo'ladi".



shaharlariga takror-takror kelib ketardi. Bu haqidagi tarixiy manbalardan birida bunday deyiladi: "Buxoriy barcha diyorlardagi muhaddislar huzuriga safar qildi. U o'z risolalarini Xurosonda, Jibolla, Iroz shaharlarining barchasida, Hijozda, Shomda, Misorda yozdi"...

"U Makkadan qaytganidan keyin turli yurtlardagi hadis mashoyixlari huzuriga bordi. Balxda, Naysaburda, Rayda, Bag'dodda, Kufada, Madinada, Vositda, Damashqda, Asqalonda, Himsda, yozdi, oydin tulnarda bo'lib qaytdi".

Albatta, bu safarlar olimga yuksal sharaf keltirdi. U qayerda bo'limasin, g'ayrat va shijoat bilan ijod qildi. Makkayi mukarramada yashagan paytlari ko'plab kitoblar yozdi va o'zining mash-hur asari — "Al-jome as-sahih"ga asos soldi. Serg'ayrat ijodi xususida u kishining o'zi bunday bayon qiladi: "O'n sak-kizga kirganimda "Qazoyos-sahobati vat-tobein" kitobini tasnif qildim". Keyin "At-tarix al-kabiyr"ni yozdim. Bu Madinayı munavvarada Nabiy alay-hissallomning muborak qabrulari yoni-da, oydin tulnarda bo'ldi".

Imom al-Buxoriyning sharafi yuk-salgan sayin uning orqasidan g'iybat qiluvchilar, yozgan asarlariga hasad ko'zi bilan qarovichilar chiqqa boshladidi. Ustoz bunday g'alamsilarga o'z ilmi, yuksak aql-zakovat bilan javob qaytarardi.

Samarqanda turganida ana shunday imtihonlardan biri bo'lib o'tdi. Hadis eshituvchilardan to'rt yuz nafari yetti kun davomida muhaddislar sultonini adashtirishga harakat qilishdi. Ular Shom isnodini Iroz isnodiga va aksincha, Iroz isnodini Shom isnodiga kiritishdi. Hamar isnodini Yaman isnodiga, ayni damda Yaman isnodini Haram isnodiga kiritildilar. Ular qanchalik urinishmasin, ustozni isnodda ham, matnda ham biror lafzga adashtirisholmadi.

Xuddi shunday imtihon Bag'dodda ham bo'lib o'tdi. U kishining tashrifini eshitgan bag'dodlik muhaddislar to'planihib, yuzta hadisni tanlab oldilar. Ulardan birining matnini boshqa isnodiga, boshqasining isnodini matniga almashtirib qo'yishdi. So'ngra o'n nafar kishining har biriga o'sha chalkashtirilgan hadislarini o'ntadan bo'lib berishdi.

Yig'inning vaqt-sotati tayin qilindi. Ushbu majlisiga Xurospon va boshqa yurtlardan ham muhaddislar tashrif buyurishi. Davradagilarning maqsadi aniq edi. Imom al-Buxoriy kelgach, haligi vazifa olganlar navbatini bilan hadislarini aytay boshlashdi. Imom al-Buxoriy xotirjamlik bilan: "Buni bilmayman", deb javob qay-

tardi. Keyingi hadis haqida so'ralgani-da yana shu javobni olishdi. Shu tariqa alishtirilgan hadislarining hammasi so'rab bo'lindi. Javob esa bir xil edi. Bu holatdan taajjublangan kishilar ustozni ojizlik va ilmsizlikda ayblay boshlashdi.

Savollar tugagach, imom al-Buxoriy hadis aytgan kishining birinchisiga yuzlanib, dastlabki aytgan hadisning to'g'risi bunday, ikkinchisining javobi esa mana bunday, deya, aytilgan yuzta hadisining hammasingin matni va isnodini joy-joyinga qo'yib to'g'rilab chiqdi. Biror so'zga daashmadni. Ushbu majlisda hozir bo'lganlar imom al-Buxoriyning ilmi va fazilatiga yana bir bor tan berishdi.

Imom al-Buxoriy hazratlari butun hayoti davomida Islom dinining muqaddasligi va sofigli uchun kurashdi. Ummadining sha'niga, Rasululloh salollohu alayhi vasallamning muborak sunnatlariga noloyiq bo'lgan illatlarga nisbatan shafqatsiz bo'ldi. Uning bu xizmatlari tufayli Islom dini musaffo holda bizgacha yetib keldi. Buni muhtarat Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasing 72-sessiyasidagi nutqida jumladan shunday deya ifodalagandi: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrhaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz".

Islam dini bizni ezzulkil va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avay-lashga da'vat etidi".

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hazratlari kelajak avlodga o'zidan juda katta boylik bo'lgan ma'naviy meros qoldirdi. Bular "Al-jome as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabiyr", "Kitob uz-zuafu", "Kitob us-sunan fil figh", "Al-asmaa va kuniy", "Bir rul-validay-ni", "Al-jome al-kabiyr", "Al-musnad al-kabiyr" va boshqa o'nlab mukammal asarlardir.

Ushbu bebabu boylikni o'qib o'rganish, ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, xalqimiz orasidan yana ko'plab zabardast hadisshunos olimlar yetishib chiqishiga yelkadosh bo'lish bugungi avlod zimmasida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan imom Buxoriy nomidagi Hadis maktabi faoliyatining maqsad-mohiyati ham shunda iboratdir.

Shodiyor MUTAHHARXON o'g'li, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

27-sentabr — Xalqaro turizm kuni

Erkin sayohat yangi dunyolarni kashf etadi

Xalqaro turizm kunida shior yangraydi!

1979-yili Ispaniyada o'tgan konferensiyada Xalqaro sayyoqlik tashkiloti Bosh assambleysi tomonidan tashkilot nizomi qabul qilingan kun — 27-sentabr sanasi "Xalqaro turizm kuni" deb e'lon qilindi. O'shandan boshlab dunyoning turli burchaklarida nafaqat sayyoqlik sohasida faoliyat yuritadigan kasb egalari, balki sayohat qilishni sevadigan barcha insonlar har yili katta xursandchilik bilan nishonlayotgan ushbu norasmiy bayramning tashkil etilganiga bu yil roppa-rosa 40 yil to'ldi.



O'tgan yillarda davomida sayyoramizdagi jamiki xalqlar rivojlanishi, yanada tarraqqi etishida turizmning o'mni nechog'lik yuqori ekanini ko'rsatishga xizmat qilayotgan "Xalqaro turizm kuni" ko'plab davlatlarda keng ommalashdi. Bir vaqtar turizmni targ'ib qilish, uning jahon iqtisodiyoti ga qo'shadigan hissasini yoritish hamda mamlakatlardan o'tasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro bayram bugun ham dunyo hamjamiyati e'tiborini turizmning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyatiga qaratish orqali ushbu sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kash etmoqda.

Chindan ham so'nggi yarim asrda turizm jahon iqtisodiyotining muhim va tez o'suvchi sohasiga aylandi. Ayrim mamlakatlarda u hatto davlat budgetining asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Ayni damda dunyodagi yalpi ichki mahsulotning 10 foizini tashkil etayotgan turizm sohasi rivojlanish ko'sratikchilari jahonda sodir bo'layotgan global iqtisodiy inqiroz, tabiiy ofat va turli kasallifiklarga qaramay, yil sayin o'sib bormoqda. Ayniqsa, turizm bilan bog'liq yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va transport narxlarining pasayishi xalqaro sayohatlar sonining yanada ortishini xizmat qilmoqda.

Hech shubhasiz, mamlakatlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarning rivojlanishi bevosita turizmga bog'liq. Agar u barqaror boshqarilsa, davlatga katta foyda keltirishi turgan gap. Ayniqsa, jahonda tinchlikni saqlash va turli xalqlar madaniyatini o'rganishda xalqaro turizmning o'mni yuqori.

Sayohat qilish hamisha insonlarning sevimli mashg'uloti bo'lgan. Qadimda odamlar asosan savdo-sotiq maqsadida turli davlatlarga borgan bo'lsa, bugunga kelib, kishilar orasida dam olish, sayohat qilish, davalanish, tijorat va boshqa ko'plab maqsadlarda chet el safarlariga chiqish ommalashgan. Ayniqsa, turistik agentstiklar va ular ko'rsatadigan xizmatlar sifatining takomillashayotgani jahonda sayoholar sonining yanada ortishini ta'minlamoqda.

Bugun dunyo bo'yicha eng ko'p sayyoohlarni qabul qiladigan davlatlar

nomi ko'pchilikka qiziq. BMTning Xalqaro sayyoqlik tashkiloti an'anga ko'ra, 2018-yili sayohatga chiqqan turistlar soni va eng ko'p sayyoohlarni tashrif buyurgan mamlakatlar nomini e'lon qildi. Unga ko'ra, sayyoqlik oqimining 60 foizi 20 ta davlat hissasiga to'g'ri kelgan. Top — 10 talikning birinchi pog'onasini Fransiya zabit etdi. Ushbu davlatga 2018-yili 93,2 million sayohoy tashrif buyurgan. Keyingi o'rnlarni Ispaniya, AQSh, Xitoy hamda Italiya egalladi. Ilk o'ntalikdagisi davlatlar orasida eng katta o'zgarish Turkiyada kuzatildi. 2018-yili 45,8 million sayohoni kutib olgan ushbu mamlakat sayyoohlarni bo'yicha 8-o'rindan 6-o'ringa ko'tarilib oldi. Keyingi o'rnlarni esa Meksika, Germaniya va Tailand davlatlariga nasib etdi. Birinchi o'ntalikdagisi eng "omadsiz" davlat o'ninchisi o'ringa tushib qolgan Buyuk Britaniya bo'ldi.

Xalqaro sayyoqlik tashkiloti 2018-yili jahon bo'yicha sayyoqlik tashriflari rekord darajaga — 1,4 milliardga yetgani va bu avvalgi yilga nisbatan 6 foiz ko'pligini ma'lum qildi. Qayd etilishicha, o'tgan yili sayohatlar soni Yaqin Sharqda 10, Afrika da 7, Osiyo va Yevropada 6. Shimoliy va Janubiy Amerikada 3 foiz osghan. Marказiy Amerika va Karib orollarida esa 2017-yilning sentabr oyida sodir bo'lgan "Irma" va "Mariya" bo'ronlari tufayli sayyoohlarni oqimi sezilarli darajada kamaygani kuzatilgan.

Xalqaro turizm ko'plab mamlakatlarda kirimlarning ortishiga xizmat qiladi. 2018-yil ham davlatlara turizm sohasidan yomon foya ko'rmadi. Xalqaro sayyoqlik tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili turistlar o'z sayohati davomida jami 1,7 trn AQSh dollarari — avvalgi yillarga nisbatan 4 foiz ko'proq mablag' sarflagan. Bu boroda Osiyo va Tinch okeani hududlari 7 foiz ko'rsatkich bilan yetakchilik qilmoqda. Yevropada esa turizmdan tushgan kirimlar 5 foizni tashkil etdi. Yaqin Sharq va Afrikada bu ko'rsatkich 3 va 1 foiziga teng ekani aytlimoqda.

Kuzatuvalarga ko'ra, 2018-yili chet elga sayohat qilganlarning ko'p qismi Buyuk Britaniya, AQSh va Xitoy aholisi bo'lgan.

Jarayonda 126,2 million britaniyalik xalqaro uchish xizmatlari foydalangan. Bu dunyo bo'yicha jami yo'lovchilarning 8,6 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rnlarni esa AQSh va xitoylik yo'lovchilar band etdi. Top-5 talikdan Germaniya va Fransiya aholisi ham joy olgan. Xalqaro sayohatlar natijasida dunyodagi barcha aviakompaniyalar o'tgan yil davomida 4,4 milliard yo'lovchini manziliga eltilib qo'yanan. E'tiborli, bu ko'rsatkich yildan yilga ortmoqda.

2019-yil ham turizm sohasi uchun yomon boshlanmadidi. Xalqaro sayyoqlik tashkiloti 2019-yilning birinchi yarim yilligida xalqaro sayyoqlik tashriflari sonining 4 foiziga ortganini ma'lum qildi. Yarim yillikning o'zidayoq xalqaro sayohatlar soni 671 mln.ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018-yilning shu vaqtiga nisbatan 30 mln.ga ko'proq. Qayd etilishicha, bu yil sayyoohlarni oqimi Yaqin Sharqda 8, Osiyo mamlakatlari va Tinch okeani hududlarda 6, Yevropa davlatlarida 4, Afrikada 2, Marказiy Amerikada 1 foiz osghan. Janubiy Amerikada esa aksincha, sayyoohlarni 5 foiz kamaygan.

Bu yil Yaqin Sharqda sayyoohlarni sonining ortishiga sabab bo'lgan ikkita yirik kvartal kuzatildi. Biri qishki mavsum bo'lsa, ikkinchisi may-iyun oylariga to'g'ri kelgan muborak Ramazon oyi va u bilan bog'liq diniy marosimlardir.

So'nggi yillarda sayyoohlarni bo'yicha yetakchilik qilayotgan davlatlar orasida Turkiya ham bor. Ilk yarim yillikda mamlakatga tashrif buyurgan sayyoohlarni oqimi so'nggi 5 yillikda rekord darajaga yetdi. Istanbul shahri 6 oy ichida 5,42 mln xorijlik mehmonga mezonlik qildi. Sayyoohlarning aksariyati Germaniya, Eron va Rossiya fuqarolaridir. Shahar meri Ali Yerlikayining ta'kidlashicha, Istanbul sayyoohlarni bo'yicha jahonda 10-, Yevropada 3-o'rinda turadi. Turkeyaga keluvchilarning har 100 nafardan 42 nafari muazzam Istanbul shahrinin ko'may ketmaydi. Bundan o'zgacha g'urur tuygan shahar hukumati yil so'ngiga qadar 15 mln sayyoohni uzluksiz qabul qilishni maqsad qilgan.

Dunyoda turizm sohasi yil sayin rivojanmoqda. Bunga nafaqat insonlarning sayohat qilish va dunyoning betakror mamlakatlarini ko'rishga qiziqishi, balki mamlakatlardan savdo-sotiq aloqalarning kengayli borayotgani ham sabab. Har yili ko'plab davlatlarda nishonlanadigan 27-sentabr — Xalqaro turizm kuni sayohatni jon dildan sevadigan kishilar uchun chinakam bayram sanaladi. Unda tashkilotchilar insonlarni sayohat qilishdan bahra olishga chorlaydi. "nu kuni odamdar "Turizm — jahon tin'ligining hayotiy quvvati", "Erkin sayohat yangi dunyolarni kashf etadi", "Bir milliard sayoy — bir milliard imkoniyat", "Barqaror turizm — rivojlanish garovi" shiorlari ostida birlashib, barchani turizmni rivojlantirishga hissa qo'shishga chaqiradi.

Sana munosabat bilan joylarda turizm va sayyoqlik biznesiga bag'ishlangan turli bayram tadbirlari, quvnoq festivallar o'tkaziladi. Mamlakatlar miyosida turistik loyihalar, dasturlar tashkil etilib, unga barcha yosh va kasbdagi insonlar jalb etiladi. Shu kuni sayyoohlarni kompaniyalar o'z mijozlariga qator chegirmalar taklif etadi.

Turistik kompaniyalar xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlarga yanada qulaysi yaratish maqsadida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar muhokamasiga bag'ishlangan konferensiyalar tashkil etadi. Yirid kompaniyalar tomonidan turizmni rivojlantirishga doir xalqaro seminarlar o'tkaziladi. Sayohatsevarlar esa yaqinlari davrasida yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlar borgan va ko'rgan g'aroyib shaharlar haqidagi boshqalarga so'zlab beradi. Ayrim kishilar esa shu kuni avval o'zi bo'lmagan biror davlatga sayohat qiladi. Axir bu — vaqtini maroqli o'tkazish va sayohat zavqini his etish uchun eng quay vaqt-dal!

Yana bir g'aroyib jihat, bayram kuni aksariyat insonlar odatiy uy yumushlaridan chalg'ib, sershovqin shahar hayotidan uzoqroqqa, sokin maskanlarga sayohat qilish yoki shunchaki tabiat qo'yniga sayga chiqishga odatlangan. Chunki Xalqaro sayyoqlik tashkiloti odamlarni ish joyidan qisqa muddatli ta'tila chiqib, bayram kuni lar biror davlatga, hech bo'lmaganda tabiat bag'riga sayohat qilib, o'zini haqiqiy sayohatchilardek his etish zavqini tuyishga chorlaydi. Sayohat qilish imkon bo'limasa, do'star bir yerda jam bo'lib, o'z shaharlarini kezib, uning go'zalligidan bahramand bo'lishi mumkin. Bayram kuni insonlarning sayohat xaritasi yanada kengayishi uchun dunyoning ko'plab davlatlaridagi muzevy va boshqa madaniy maskanlarda "ochiq eshiklar kuni" o'tkaziladi.

Bugun barcha rivojlangan davlatlar qatorini O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Poytaxtimiz va barcha viloyatlarda tashkil etilayotgan shahar ichidagi shaharlar, zamonaliv mehnmonxonalr, madaniy va dam olish maskanlari, qayta tiklanayotgan tarixiy obidalari hamda xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish choralarining bari yurtimizga keladigan sayyoohlarni sonining ortishiga xizmat qilmoqda. Qayd etilishicha, 2019-yilning birinchi yarmidayoq 3 mln 834 ming sayoy mamlakatimizda dehmon bo'ldi. Shulardan 175 mingi Qozog'iston, 98 mingi Qirg'iziston, 92 mingi Tojikiston, 42 mingi Turkmaniston, 40 mingi Rossiyadan kelgan turistlardi.

Shuningdek, "Wegoplace" onlayn-servisi kuni kecha e'lon qilgan 2019-yili yakka sayyoohlarni uchun eng xavfsiz davlatlar reytingida O'zbekiston yetakchi beshtalikdan joy oldi. Reyting 142 ta davlat va killari orasida so'rovnomaga o'tkazish orqali tuzildi. Unda ishtiroychilarga tungi shahar bo'ylab sayr vaqtida o'zlarini qanchalik xavfsiz his etishlari, mahalliy politsiyaga qanchalik ishoni shular hamda biror hujum yoki talonchilikka uchraganlari haqida salvollar berildi. Natijada eng yuqori xavfsizlik indeksiga Singapur erishgan bo'lsa, un dan keyingi o'rnlarni Norvegiya, Islandiya va Finlandiya davlatlari egalladi. 5-o'ringa esa O'zbekiston munosib topildi. Ushbu yuqori darajadagi ko'rsatkich mamlakatimizda sayyoohlarni uchun yaratilgan sharoitlar hamda yurtimiz tinchligidan dalolatdir. Zero, O'zbekiston nafaqat sayyoohlarni xavfsizligini ta'minlash, balki dunyonai hayratga soladigan ko'hma obidalari bilan turistlarni o'ziga jalb etishda ham hech bir rivojlangan davlatdan qolishmaydi.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Sayyoramizdag'i suvning har uchala agregat holatida bo'la olishi va tabiatda suvning aylanish hodisasi boshqa sayyoralarda kuzatilmaydi.

EKZOSAYYORADA SUV BUG'I


"Habbl" teleskopi kuzatuvlar tarixida ilk marta K2-18b ekzosayyori atmosferasida suv bug'i mavjudligini aniqladi. Bu haqidagi qiziqarli maqola "Nature" jurnalida chop etildi.

Teleskopdan olinan tasvirlarni tahlil qilgan britaniyalik olimlar K2-18b bizdan 111 yorug'lik yili uzoqlikda — Arslon yulduzlar turkumiga kiruvchi qizil mitti yulduz sistemasida joylashganini ma'lum qildi. Ushbu ekzosayyori o'z yulduzini 33 kunda aylanib chiqadi. Shuningdek, uning atmosferasida oz miqdorda geliy va vodorod gazi ham aniqlangan. O'g'irligi Yer massasidan sakkiz barobar katta ekani aytilayotgan ekzosayyori mutaxassislar "Yirik Yer" yoki "Super Yer" deb ham atamoqda.

K2-18b ekzosayyorasida suv bug'iining aniqlanishi unda mayjud suvning suyuq holatda ekaniga to'g'ridan to'g'ri ishoradir. Aslida suyuq suv muayyan osmon jismida hayot yuzaga kelishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq qator dalillar K2-18bdan hayot borligini inkor etmoqda.

Osmo jismi orasida faqat Yer sayyorasida suyuq suv mayjud bo'lgani bois u koinotdagi noyob sayyora sanaladi. Darhaqiqat, sayyoramizdag'i suvning har uchala agregat holatida bo'la olishi va tabiatda suvning aylanishi hodisasi boshqa sayyoralarda kuzatilmaydi. Biroq K2-18b ekzosayyorasida aniqlangan suv bug'i ushbu haqiqatni yo'qqo chiqarishi mumkin.

Eslatib o'tamiz, K2-18b sayyori 2015-yili "Kepler" teleskopining ikkinchi missiyasi davomida aniqlangan. Shundan so'ng olimlar undan olinan tasvir-



larni maxsus kompyuter dasturida filrlab, muhimlarini o'rganib chiqqan. Endilikda mutaxassislar sayyoraga oid yangi va aniq ma'lumotlarni yaqin yillarda koinotga uchirilishi kutilayotgan kosmik teleskoplarning yangi avlodni — "Jeyms Uebb" yordamida olishga umid qilmoqda.

QADIMGI METALL SIRI

Germaniyadagi Geydelberg universiteti olimlari eramizgacha bo'lgan ikki mingyillikda yashagan bronza davri odamlari foydalangan qalayning kelib chiqish sirini ochishga muvaffaq bo'ldi. Yangi ma'lumotlar metalning Markaziy Osiyoda emas, Yevropada paydo bo'lganini ko'rsatdi, deb yozdi "Phys.org".

Tadqiqotchilar qo'rg'oshin va qalay izotoplarini Turkiya, Isroil va Gretsiyadan topilgan metall quymalarida tahlil qildi. Jaryonda Isroildan keltirilgan idish buyumlarini tayyorlashda foydalananligan qalay Buyuk Britaniyadagi Kornuoll va Devon grafligiga tegishli bo'lgani aniqlandi.

Shu vaqtgacha olimlar mis va qalay qorishmasidan tayyorlangan bronza eramizgacha bo'lgan 4-3-ming yillikning oxirida Yaqin Sharqda ishlab chiqarilib, keyinroq butun Yevropaga tarqalgan, deb hisoblardi. Odamlar bronzadan qurol-yarog', zargarlik buyumlari va maishiy jihozlar tayyorlashda foydalangan. Biroq so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan so'ng olimlar qalayning Sharqi O'rta Yer dengizi hududida paydo bo'lmaganiga ishonch hosil qildi.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

reklama • e'lon • reklama • e'lon • reklama

Tursunov Shuxrat Sabitjanovichning 13.00.04 — Jismoni tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yunon-rum kurash-chilarining texnik-taktik tayyorgarliklarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoni tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-oktabr kuni saat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv bino, 2-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjsu@uzdjsu.uz

Yusupova Farida Maratovnaning 08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Qishloq xo'jaligida tomchilatib sug 'orish texnologiyalari dan foydalish samaradorligini oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya ve qishloq xo'jaligini mechanizatsiyalash muhandislari instituti, Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.10.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-oktabr kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiaame.uz

Kadirbayeva Aliya Aristanovnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati o'sma oldi kasalliklarini erta tashxislash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-oktabr kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Muxtumquli ko'chasi, 103-uy, Toshkent davlat stomatologiya instituti.

